



“QISSASI RABG‘UZIY” ASARIDA KELTIRILGAN AYRIM QISSALAR TAHLILI

Aburayimova Mashhura Sherali qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rabg‘uziy, Nosiriddin Burhonuddin “Qissasi Rabg‘uziy” asari haqida va unda berilgan hikoyatlar, qissalarning asl mohiyati haqida aytib o‘tiladi. Bundan tashqari, biz uchun muqaddas hisoblangan Qu‘roni Karimdan keltirilgan ba‘zi bir oyatlardan olingan ma‘lumotlar ham asarda o‘z ifodasini topganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga, bu asarda keltirilgan ba‘zi bir qissalarning yosh-avlodlar uchun tarbiyaviy-axloqiy tomonlari haqida ijodiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qissasi Rabg‘uziy, payg‘ambarlar, musulmon dini, olam va odam, Ismoil alayhissalom, Ibrohim alayhissalom, Ammora.

Annotation: This article discusses the work of Rabguzi, Nasiriddin Burhanuddin "Qissasi Rabguzi" and the stories and the true essence of the stories given in it. In addition, we can see that information taken from some verses from the Holy Quran, which is considered sacred for us, is also reflected in the work. At the same time, a creative analysis is made of the educational and moral aspects of some of the stories given in this work for the younger generations.

Keywords: Qissasi Rabguzi, prophets, Muslim religion, world and man, Ismail, Abraham, Ammara.

Аннотация: В данной статье рассматривается произведение Рабгузи, Насирдина Бурхануддина «Киссаси Рабгузи», а также предания и истинная суть приведённых в нём историй. Кроме того, в произведении отражены сведения из некоторых аятов Священного Корана, считающихся для нас священными. В то же время проводится творческий анализ воспитательных и нравственных аспектов некоторых историй, приведённых в этом произведении для подрастающего поколения.

Ключевые слова: Киссаси Рабгузи, пророки, мусульманская религия, мир и человек, Исмаил, Авраам, Аммара.

KIRISH. Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy” asarining muqaddimasida otasi Burhoniddinning O‘g‘uz Rabotining qozisi bo‘lganligi aytib o‘tadi. Asar Nosiriddin To‘qbo‘g‘aning topshirig‘i asosida yozilgan¹. Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asari o‘zbek badiiy nasridagi eng tarixiy manba yoki ilk yozma manbalarimizdan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, har bir narsaning yaratilishida, rivojlanib, shu darajaga kelishida, albatta, o‘ziga yarasha mashaqqatli,

¹ Boqijon To‘xliyev “Adabiyot” (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik) - Toshkent: “O‘qituvchi” 2003y - B.172.



shu bilan birga qiziqarli tomonlari ham bo'lganidek, bu asarning ham yaratilishiga qisqacha to'xtalib o'tsak, yuqorida aytganimizdek, bu asar musulmon dinini qabul qilgan, o'z davrida yuqori martabaga ega bo'lgan mo'g'ul beklaridan biri Nosiruddin To'qbug'aning taklifi bilan hijriy 109 (milodiy 1310)-yilda yozilganligi aytib o'tilgan. Biz bu asardan tarbiyaviy ahamiyatidan tashqari, ma'lum bir darajada o'z tariximiz haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz, shu bilan birga o'sha davrdagi insonlarning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, bir qadar ularning madaniyati, urf-odatlar haqida bilim ko'nikmalarni egallashimiz mumkin ya'ni bu asar biz uchun ham badiiy asar sifatida adabiyotshunoslik sohasiga va tarixshunoslik sohasiga o'zida jamlagan ma'lumotlari bilan muhim manba sifatida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Negaki, "O'z tarixini bilmaydigan, o'tmishni unutgan millatning kelajagi yo'q" deb bejiz aytishmagan ota-bobolarimiz.

"Qissasi Rabg'uziy" asari har tomonlama mukammal, har bir inson uchun kerakli va bilishi zarur bo'lgan mavzuda yaratilgan. Ayniqsa, uning payg'ambarlar hayotidan berilgan qisqa hikoyat yoki qissalari juda chiroyli va tushunarli tarzda yozilganligi boisdan, odamni o'ziga jalb qilmasdan qolmaydi.

Asar, eng avvalo, Olloh taoloning qudrati ila osmon va yerlarning qanday yaratilishi ya'ni butun bir olamning yaralishi va farishtalar-jinlarning yaratilishi undagi o'simlik-u, jonivorlar, insonlarning Olloh tomonidan qay tarzda yaratilganligi haqidagi ma'lumotlar bilan boshlanadi. Payg'ambarlar hayotidagi biz uchun ibratli bo'lgan voqealar tasvirlangan.

Asar Odam Atoning yaralishidan boshlangan ya'ni asarda inson zoti ilk bora qanday yaralganligi, Odam Ato nima sababdan jannatdan quvilganligi va insonlar nimalardan foydalanishi mumkin-u, nimalardan o'zini tiyishi va insonga harom bo'lgan narsalar-u, bajarilmaydigan hatti-harakatlar, ishlar haqida aytilgan. Hayotimiz davomida bizga qaysi hayvonlar do'st-u dushman bo'lishi haqida misollar bilan aytib o'tilgan.

Bundan tashqari, "Qissasi Rabg'uziy" asarining o'zi ikki qismdan iborat bo'lib, asarning birinchi qismi davomida ko'rishimiz mumkinki, bir qancha payg'ambarlarimizning hayot tarzlari ta'svirlangan, ya'ni yer-u osmonning paydo bo'lishi, Odam alayhissalomdan to Yusuf alayhissalomgacha bo'lgan voqelikni o'zida aks ettirgan. Asarda Odam alayhissalom qissasi, uning farzandlari Qobil, Hobil qissasi, Shis alayhissalom qissasi, Idris alayhissalom qissasi, Nuh nabi alayhissalom qissasi, Hud alayhissalom qissasi, Solih alayhissalom qissasi, Ibrohim alayhissalom qissasi, Ismoil alayhissalom qissasi, Is'hoq alayhissalom, Ya'qub alayhissalom, Lut alayhissalom va oxiri Yusuf alayhissalom kabi payg'ambarlar haqidadir. Hatto Ka'baning qurilishi haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Olloh taolo odamni yaratishini xitob qilganlarida, barcha narsalar Olloh taologa iltimos qilib, odamni bizdan yaratgin, deydi. Tog': "Odamni mendan yaratgil men quvvatlikman" - dedi. Dengiz: "Men haybatlikman" – dedi. Osmon: "Men yuksakman". Oltin: "Men azizman"



dedi. Shunda yer: “Men hammadan zaifman, oyoq ostiman” - dedi. Shundan so‘ng xitob keldi: “Men Odamni yerdan yaraturman”, dedi². Biz qissaning parchasidan o‘zimizga tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan joyini olishimiz kerak. Tarbiyaviy ahamiyati shundaki, manmanlik, maqtonchoqlik yaxshi hislat emas. Aksincha, kamtar inson bo‘lish yaxshi. Chunki, “Maqtangan pand yeydi, kamtarin qand yeydi”, manman, maqtanchoq inson faqat o‘zining manfaatlarini o‘ylaydi, o‘zi uchun chin do‘stini sotishdan ham toymaydi, kamtar inson esa xalq uchun qayg‘uradi. Shu boisdan ham Olloh taolo yerni tanladi. Bundan tashqari, yer ya’ni tuproq har xil elementlardan tashkil topgan, shu boisdan bo‘lsa kerak inson zoti har xil, ko‘rinishidan tortib to uning hislatlar, fe‘l-atvori ham. “Besh qo‘l barobar emas”- deb bejiz aytishmagan ekan otabobolarimiz.

Asarda biz uchun ibratli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladigan joylari ko‘p. Shulardan yana biri “Ismoil alayhissalom qissasi” payg‘ambarimizning hayotlaridan bizga o‘rnak bo‘ladigan jihati, ularningotasiga bo‘lgan hurmati ya’ni ota-onaga bo‘lgan munosabat shunday ajoyib tasvirlangan.

Ismoli alayhissalom ov qilishga qiziqardi, shu boisdan uyda kam bo‘lardi. U Ammora ismli ayolga uylangandi va oradan vaqt o‘tib, u bir kuni ovga ketgandi. Shunda uyiga o‘g‘lini ko‘rgani Ibrohim alayhissalom keladi va uydan kelini chiqadi. Ibrohim alayhissalom: “Ismoil qayerda? -deb so‘radi. Kelin: Ovgga ketgan – dedi. Shunda ota yana qachon keladi deb so‘ragan edi. Kelin: Muncha ezma chol bo‘lmasa – deb og‘rindi. Shundan so‘ng, Ibrohim alayhissalom: Ismoilga bir yaxshi kishi senga salom aytdi va eshigi ostonasi yaroqsiz ekan, deb aytigil – dedi. Bo‘lgan voqealarni hammasini Ismoil kelgach, ayoli unga aytib berdi. Shunda Ismoil: U kelgan kishi mening otam bo‘ladi, eshik ostonasi yaroqsiz deb seni aytgan. Demak sen, otamni yaxshi kutib olmagansan, hurmatini joyiga qo‘ymagansan – deb, ayoliga taloq beradi. Va oradan ancha vaqt o‘tgach, Ismoil yana Sayyida ismli ayolga uylanadi. Shunda Ota yana o‘g‘lini ko‘rgani keladi. O‘g‘li yana ovga ketgan paytda kelgan bo‘ladi. Eshikni kelini ochadi va ichkariga kirishini va biror narsa tayyorlab berishini, mehmon bo‘lishini taklif qiladi va ota ichkariga kirmaslikni tayyor biror narsa berishini so‘raydi va kelin uyidan tuya sutidan ayron olib chiqib beradi. Shundan so‘ng, keliniga Ismoil kelsa, salom aytishini va eshik ostonasini mahkam tutishini aytishini tayinlab, qaytib ketadi. Ismoil kelgach, ayoli bo‘lgan voqealarni Ismoilga aytib berdi. Ismoli: “U kelgan kishi otasi ekanligini aytib, eshik ostonasi deb seni aytgan“ deb tushuntiradi va ayolidan xursand bo‘ladi.³

Yuqorida keltirilgan qisqacha ma‘lumot, payg‘ambarimiz hayotidan. Biz uchun tarbiyaviy ahamiyati shundaki, otaga hurmatda bo‘lish, umuman olganda butun jamiyat ayollarimiz uyga kelgan mehmonga qo‘rslik qilmasdan, hurmatini joyiga qo‘yib, xushmuomilalik bilan kulib

² Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy” (birinchi kitob) – Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti 1990y.

³ Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy “Qissasi Rabg‘uziy” (birinchi kitob) – Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti 1990y.



kutib olish kerakligini, o'zimizga o'rnak sifatida qabul qilib, xulosa chiqarishimiz kerak. Aks holda, o'z obro'yimizga putur yetkazishimiz va boshqa salbiy oqibatlariga olib kelishi ya'ni birinchi ayollari o'rniga tushib qolishimiz ham hech gap emas. Shu boisdan, inson har qanday vaziyat va holatlarda muomilaa madaniyatiga rioya etgan holda gapirishi kerak. O'tkir Hoshimov o'z asarlarida ayolni shunday ta'svirleydiki, "Ayol mehri – asaldek totli. Ayol makri – zahardek xavfli."⁴ Ya'nikim, nafaqat ayol balki, umuman insonlar bir-biriga mehr bilan shirin so'zlar bilan gapirsa, har qanday insonda gapirgan shaxsga nisbatan ijobiy fikrlar paydo bo'ladi. Bundan tashqari, qadimdan ota-bobolarimiz aytib kelgan "shirin gapga ilon ham inidan chiqadi" bu maqol ham yuqoridagi fikrlarga isbot bo'lishi mumkin.

Asar mazmuni qanchalar boy va teran fikrlar bilan ifodalanganligi, ayniqsa, payg'ambarlarimizning hayotlaridan keltirilgan ibratli voqealar insonni hayotdagi o'rni qanday bo'lishligi, insonlarga qanday munosabatda bo'lishlikni o'rgatadi. Bundan tashqari, Yuqorida aytib o'tganimizdek, "Qissasi Rabg'uziy" asarining birinchi qismi oxirida Yusuf payg'ambarning hayot tarzi ta'svirlangan bo'lsa, unga ko'ra Yusuf payg'ambar juda chiroyli, odobli yaqinlarini hurmat qiladigan iymonli, insofli shaxs bo'lgan. U umri davomida juda ko'p qiyinchiliklarga uchragan bo'lsa ham sabr bilan bularning oxiri go'zal bo'lishiga ya'ni Olloh taolloga bo'lgan ishonchi, iymoni bilan qiyinchiliklarni yengib o'tadi va o'zining go'zal husni bilan katta ketmaydi ya'ni kamtar inson bo'lgan. Ya'na bir hislatlaridan biri, o'z yaqinlarining unga nisbatan qilingan adovatiga nisbatan zulm qilmaydi, aksincha, ularning tavba qilishlarini va bunday yomon ishlardan qaytishini so'raydi. "Men sizlardan hafamasman, lekin Ollohim bu gunohlarizni kechirsin"- deydi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday inson bu asarni o'qir ekan hayoti davomida nima yaxshi-yu nima yomon ekanligi, kimlarga qanday muomalada bo'lish kerakligi, kibrlanmaslik kabi hislatlarni o'rnak qilib olishi mumkin, shuningdek ba'zi manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, musulmon dinini qabul qilgan Nosiriddin To'qbo'g'a yozuvchidan "o'qimoqqa keraklik, o'rganmakka yarog'liq" asar yozishini so'raydi, darhaqiqat, bu asar o'qisak o'qishga arziydigan, o'rgansak o'rganishga arziydigan, ham badiiy, ham tarixiy, ham diniy asarlar qatoriga kiritishimiz mumkin. Shunday ekan, bu asar orqali juda ko'p narsalarni o'rganishimiz mumkin, jumladan, o'z tariximiz, dinimiz, madaniyatimiz, urf-odatlarimizni o'rganishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy "Qissasi Rabg'uziy" (birinchi kitob) – Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti 1990y.
2. Hoshimov O'. *Daftar hoshiyasidagi bitiklar* – Toshkent: "Nurli dunyo" nashriyot uyi, 2024y.

⁴ O'tkir Hoshimov. *Daftar hoshiyasidagi bitiklar* – Toshkent: "Nurli dunyo" nashriyot uyi, 2024y. B.23.



3. *To'xliyev B "Adabiyot" (Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik) - Toshkent: "O'qituvchi" 2003y.*
4. *Arxiv.uz "Qissasi Rabg'uziy O'zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida"*